



PSIXOANALIZ RIVOJLANISHI VA SHAXS TUZILISHI HAMDA RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASIDAGI XUSUSIYATLARI

Mamayusupova I.H.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida
katta o'qituvchisi, PhD*

Tayanch so'zlar: psixoanaliz, rivojlanish, yetilish, shaxs, biologik va ijtimoiy omillarni rivojlanish, jarayon, psixologiya, xususiyatlar, kategoriya, individ.

Ключевые слова: психоанализ, развитие, зрелость, личность, развитие биологических и социальных факторов, процесс, психология, характеристики, категория, индивид.

Key words: psychoanalysis, development, maturity, personality, development of biological and social factors, process, psychology, characteristics, category, individual.

Резюме:

Maqolada psixoanaliz rivojlanish talqiniga tohtalib otdi va rivojlanish va yetilish tushunchalari hamda shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy omillarni ochib berdi. Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan. Psixologiya fani uchun eng murakkab muammolar qatoriga uning asosiy kategoriyalari ochib berilgan. Shaxsni, uning tuzilishini o'rganishdan maqsad uni boshqa odamlardan ajratib turuvchi individual xususiyatlarni aniqlashdir. Xorij psihologlarinihg ham shaxs rivojlanishini ilmiy nuqtai nazariga tohtalib otilgan.

Резюме:

В статье психоанализ вошел в трактовку развития и выявил понятия развития и взросления, а также биологические и социальные факторы в структуре личности. Выделены особенности процесса развития, необходимого для психологии и педагогики. Среди наиболее сложных проблем для науки психологии выявлены ее основные категории. Целью изучения личности и ее структуры является определение индивидуальных особенностей, отличающих ее от других людей. Зарубежных психологов также привлекает научная точка зрения на развитие личности.

Summary:

In the article, psychoanalysis entered the interpretation of development and identified the concepts of development and maturation, as well as biological and social factors in the structure of personality. The features of the development process necessary for psychology and pedagogy are highlighted. Among the most difficult problems for the science of psychology, its main categories are identified. The purpose of studying personality and its structure is to determine the individual characteristics that distinguish it from other people. Foreign psychologists are also attracted by the scientific point of view on personality development.



Bugun mamlakatimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, insoniyat yaratgan ma‘naviy boylikka, insonning o‘ziga yangicha munosabat va yondashuvni yuzaga keltirdi. Bunday yangi yondashuvlar pedagogika va psixologiyaning ob'ekti va predmeti doirasini kengaytirdi. Endilikda pedagogika va psixologiya fani nafaqat ta‘lim-tarbiya jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy fan bo‘lib, balki komil shaxsning shakllanishi va rivojlanishini ta‘minlovchi keng yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining milliy kadrlar tayyorlash dasturning milliy ta‘lim modeli bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimning asosiy predmeti va obyekti sifatida qaraladi.

Ma‘lumki, pedagogika va psixologiya mutaxassis va uning ruhiy holatini shakllantirishda inson kamoloti, shaxs kamoloti, ta‘lim tizimini qamrab olmaydi. etno-antropologik, genetik-tarixiy, mustaqillik, tabiiy-ekologik, intuitiv, ma‘naviy-emotsional bilimlarga, rivojlanish, takomillashtirish omillariga tayanadi. Bundan tashqari, pedagogika va psixologiya fanlari uchun yangicha fikrlash, milliy mafkuraning murakkab sifatlarini shakllantirish. vazifalar bajarildi. O‘zbekiston Respublikasi yildan-yilga jahon miqyosida o‘z mustaqilligini e‘tirof etib kelmoqda barqarorlashayotgan bo‘lsa-da, uning istiqboli bugungi avlodning, bilimli, ularning ma‘naviy barkamol inson bo‘lib yetishishlariga bog‘liq. Bu joyda Inson psixikasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya fani alohida ahamiyatga ega bo‘lgan kasb hisoblanadi. Inson jamiyatimiz uchun komil, faol, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllantirish, psixologiya fanining samaradorligini oshirish va uning amalda to‘g‘ri yo‘nalishga ega bo‘lish juda muhimdir. Davlatimiz rahbari Muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi deputatlari va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvidagi nutqi tom ma‘noda jahon miqyosidagi voqea bo‘ldi. Bu Murojaatnoma tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, unda kelajagimiz bo‘lgan bugungi va ertangi yoshlarga oid barcha masalalar qulay tilda yangicha yechim va yo‘nalishlarda tushuntirilib, har bir ma‘ruza tinglovchisi va o‘quvchisi shaxsan e‘tiborga olinib, o‘qildi. . h faoliyatini tahlil qilishni taklif qildi. Mazkur ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy-ma‘rifiy ta‘lim konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1059-son qarorini hayotga tatbiq etishga qaratilgan. hidoyat. rivojlanishiga asos bo‘ladi. Psixologiya fani uchun eng murakkab muammolar qatoriga uning asosiy kategoriyalari bo‘lgan shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ongning tavsifi, ularning takomillashuv



bosqichlari, xususiyatlari, aks ettirish imkoniyatlari, hukm surish qonuniyatlari va mexanizmlari bo'yicha aniq, mezoniy, tatbiqiy fikrlarni bildirish masalalari va vazifalari kiradi. Shu munosabat bilan psixologiya umumiy psixologiya faniga kirish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, tinglovchilarni, avvalo, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va jamoadagi munosabati haqida, uni tadqiq qilish metodlari to'g'risida, ong va psixika, asosiy psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqida tegishli bilimlardan xabardor etgan holda, ularni professional ishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat aniq vazifani o'z zimmasiga oladi

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Yosh psixologiyasining asosiy tushunchasi "rivojlanish" tushunchasidir. Rivojlanish - bu bir holatdan boshqa murakkabrog'iga o'tish, eski holatdan yangi sifat bosqichiga o'tish, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o'tish jarayoni dir. Psixikaning rivojlanishi - psixik jarayonlarning miqdor, sifat va tuzilishi bo'yicha qayta o'zgarishlarda namoyon bo'ladigan vaqt bo'yicha qonuniy o'zgarishidir. O'sish - rivojlanish jarayonining miqdor jihat. Rivojlanishning o'sishdan asosiy farqi quyidagicha: o'sish miqdor o'zgarishlariga, rivojlanish esa yangi tuzilmalar, mexanizmlar, jarayonlar, strukturalarning paydo bo'lishida namoyon bo'ladigan sifat o'zgarishlariga taalluqlidir.

Rivojlanish va yetilish tushunchalarini ham bir - biridan farqlash zarur. Bir qator yosh psixologiyasidagi xorijiy nazariyalar uchun yetilish - rivojlanishning muhim omili, u yoki bu yutuqlarning sababidir. Zamonaviy rus rivojlanish psixologiyasida yetilish markaziy nerv sistemasi va boshqa organizm sistemasida ketma-ket yosh o'zgarishlarining psixofiziologik jarayoni, psixik funksiyalarning vujudga kelishi va amalga oshishi uchun sharoitning ta'minlanishi sifatida qaraladi. Kamolot, yetuklik tushunchalari bilan yosh davrlari psixologiyasining asosiy tamoyillaridan biri - geteroxron rivojlanish bog'liq. U inson shart - sharoit, ijtimoiy muhit, individual xususiyatlar ta'sirida turli yosh davrlarida yetuklikka erishishni tavsiflaydi. Bu esa turli yosh davrlari o'zining betakror psixofiziologik tuzilishidan darak beradi va shu yosh davrini psixologik imkoniyatlari potensialini belgilaydi. Rivojlanish jarayonining psixologiya va pedagogika uchun zarur bo'lgan xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan.



Ular quyidagilar: sifat jihatdan o'zgarish va yanada mukammalroq bosqichga ko'tarilish;

- rivojlanishni qaytara olmaslik (rivojlanish ro'y bergandan so'ng, avval mavjud bo'lgan narsa- hodisalarni to'raligicha ortga qaytarishning iloji yo'qligi);

- progress va regress elementlarining umumlashmasi (bir sohadagi progressive rivojlanish, boshqa bir sohadagi regress yuz berishi mumkinligini bildiradi);

- notekis rivojlanish (sifat o'zgarishlarining tezkor o'zgarishi, miqdor o'zgarishi bilan almashadi);

- zigzagsimon rivojlanish (yangilanishlarning paydo bo'lganida, natijalar oldingi holatlarga qaraganda, sifat jihatdan yaxshi natija bermasligi. Masalan, bola emaklashdan tik turib yurishga o'tgan davrda, sekin harakatlanadi va jarohatlar olishi mumkinligi ham kuzatiladi);

- rivojlanish darajalaridan bosqichlariga o'tish (yangilanishlar paydo bo'lganda, avval o'zlashtirilgan ko'nikmalar yo'qolib ketmaydi, balki yangilanishlar uchun asos sifatida saqlab qolinadi);

- barqarorlik ko'rsatkichi.

Psixologik rivojlanishning asosiy uch turi mavjud: filogenetik, ontogenetik va funktsional.

Filogenez psixikasi - insoniyat tarixida insonning psixik shakllanishi va biologik evolyusiyasi.

Ontogenez psixikasi - individning butun umri davomida psixologik tuzilishining shakllanishi.

Funksional rivojlanish psixikasi - psixologik funksiyalar, yangilanishlar, yangi intellektual, perseptiv, mnemik, aqliy funktsiyalarini paydo bo'lishi. Bu ontogenetik taraqqiyotning bir qismi hisoblanadi.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlarni birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish

tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Shaxs xislatlarining bir butunligi va o'zaro bog'liqligi uning psixologik tuzilishini, dinamik strukturasi hosil qiladi. Shaxsni, uning tuzilishini o'rganishdan maqsad uni boshqa odamlardan ajratib turuvchi individual xususiyatlarni aniqlashdir. Bu boradagi psixologik tadqiqotlar va nazariy ishlar asosida turli "shaxs tiplari"ning ajratishga, ularni o'rganishga olib keladi. Shaxslarning tipologiyasini yaratish turli odamlardagi individual psixologik xususiyatlarni topish va ulardagi umumiy belgilar, xususiyatlar asosida ularni ma'lum toifalarga birlashtirishga to'g'ri keladi. Nazariyalar orasida shaxsda ikkita asosiy qism, ikkita omilni ajratuvchi yo'nalishlar ko'rinarli o'rin egallagan. Ular shaxs tuzilishida ikkita omil, BIOLOGIK va IJTIMOY omillarni ajratib ko'rsatadilar. Ma'lumki shaxs ijtimoiy majudot bo'lishi bilan birga, o'zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi. Ammo bu ikki omilni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, ular birlikni tashqil qiladi, birgalikda yuzaga chiqadi. Shaxs tashqi turmush sharoitlari ta'sirida shakllanadi. Ammo lekin bir sharoitda tarbiyalangan ikki bola ikki xil bo'ladi. Chunki ularning tabiiy qobiliyatlari turlicha bo'ladi. Demak shaxsning shakllanishiga sosial omillardan tashqari biologik faktorlar ham ta'sir qiladi. Bu ikki narsa bir - biri bilan chambarchas bog'liq. Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va manbai masalasini hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Bu yo'nalishlar rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalari nomini olgandir. Biogenetik kontseptsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan tabiiy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o'z - o'zidan) sodir bo'lish xususiyatiga egadir. Shu nuqtai nazarga binoan kishi tabiatan hissiy ta'sirotlarning ruy berishidagi ba'zi bir xususiyatlarga, harakat sur'atining xususiyatlarigagina emas, balki sababiyatlarning muayyan kompleksiga ham moyil (birovlardan jinoyat qilishga boshqalarda ma'muriyatlik faoliyatida yutuqlar qozonishga moyillik va hakoza) bo'ladi. Kishida guyo uning psixik faoliyati shakllarigagina emas, balki uning mazmuni ham tabiat tomonidan programmalashtirilgan, psixik rivojlanish bosqichlari va ularning ruy berish tartibi oldindan belgilab qo'yilgan emish. Sotsiogenetik kontseptsiya shaxsni tevarak - atrofdagi ijtimoiy mohiyatning bevosita ta'siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik kontsentsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligini inobatga olinmaydi, uning tevarak atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust rol o'ynashigina



mumkin deb hisoblydi. Agar sotsiogenetik kontseptsiyaga amal qilinadigan bo'lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarga bir xildagi ijtimoiy muhitlarda har xil odamlar etishib chiqishini tushuntirib bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanishining harakatlanuvchi kuchlari kishining faoliyatiga o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlari bilan aniqlanadi. Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo'lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jamiyatda ruy beradi. Individning shaxs bo'lishi, yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo'lish kabi ehtiyoji aynan jamoada to'laqonli qondiriladi. Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tarbiya etakchi rol' o'ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirishini jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'llantirib boradi. Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'zini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Lekin insonning kamol topishida biologic shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi. Biogenetic nazariyaning namoyondalari amerikalik psixologlar F.A.Gzell va S.Xoll rivojlanishining biologic modeliga tayanib ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integrasiya va yangilanish sikllari o'zaro almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytamizki psixik rivojlanishning yuqoridagilardan tashqari me'yoriy va individual rivojlanish shakllari ham mavjud. Me'yoriy



rivojlanish shu yosh davridagi insonlarga xos bo'lgan o'zgarishlarni tavsiflaydi. Aksariyat hollarda me'yor borasida, psixologik va shaxs rivojlanishining yuqori darajasi deb qaraladi. Individual rivojlanish shaxsning alohida xususiyatlarining vujudga kelishini anglatadi. Psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri - psixologik yoshdir. U individni ontogenezdagi ob'ektiv, tarixiy va xronologik jihatlarini belgilaydi. Shunday qilib, ushbu bobda psixologiyaning tarmoqlaridan biri bo'lgan yosh psixologiyasining predmeti, ob'ekti, umumiy, nazariy va amaliy vazifalari, psixik taraqqiyot determinatsiyasi hamda fanning asosiy tushunchalari bo'lmish, rivojlanish va psixologik yosh tushunchalariga to'xtalib o'tdik.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan: 1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi. 2. Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi. 3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi. 4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.
3. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Ubaydullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya” “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” Toshkent 2018y
4. G'oziyev E.Ontogenez psixologiyasi-Toshkent. Noshir, 2010. – 328 b.
5. N.Ismoilov, D.Akbarov “ Ontogenez psixologiyasi” Darslik Toshkent.” Ta'lim” 2015y
6. Do'stmuhammedova Sh.A, Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH.T., Alimbaeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. –Toshkent. Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi, 2013. – 342 b.
7. Davletshin M.G va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – T.: TDPU, 2004. – 214 b.
8. Shtern A.S. Vvedenie v psixologii – M.: Akademiya, 2002. – 412 s.